

O‘Zbek Tilining Ilmiy Ahamiyati

Igamnazarova Nafisa Saidnazarovna¹

Annotatsiya: ushbu maqolda o‘zbek tilimizga qaratilga e’tibor, tilimizning ilmiy ahamiyati bayon etilgan va ilmiy jihatdan asoslab berishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: til., Ona tili, o’zbek tili, vatan, ijtimoiy.

Tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga bo‘lgan mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimizni talab etadi. Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Ana shu vazifalarini e’tiborga olganda, birinchidan, til ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyat uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida moddiylashadi. Uchinchidan, til va tafakkur o‘zaro ajralmasdir. Til fikrni shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o‘zida namoyon etadi. To‘rtinchidan, til uzlusiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo‘ladi.

Demak, til va tafakkur chambarchas bog‘liq bo‘lib, tilsiz fikrni ifodalab bo‘lmaganidek, tafakkursiz til o‘z ifodasini shakllantira olmaydi. Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo‘ladi. Ongingizda paydo bo‘ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so‘zlar vositasi orqali voqe bo‘ladi. Til faqat kishilarga xos bo‘lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo‘lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan bog‘liqdir. Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o‘xhash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so‘zlar, so‘z birikmalari va jumlalar orqali ifodalaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammatikaning o‘rganish obyekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o‘rganish obyektidir. Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, dinimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Shuning uchun ham o‘z tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan mahrum bo‘ladi, ma’naviy inqirozga uchraydi. O‘zbek tili turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lib, u mustaqil til sifatida XI asrdan boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o‘z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida kishilik jamiyatida shakllangan[1].

Til– millatning asosiy belgilardan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri. O‘zbek tili dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarları, Ahmad Yassaviy hikmatları, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniyy”, “Xamsa”, Boburning “Boburnoma” asarlarida, Boborahim

Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlarimiz va XX asrdagi adiblarimiz ijodida jilolanib turibdi[2].

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, davlat ishlarining, ta’lim- tarbiya, targ‘ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o‘rganish ishlari keng ko‘lamda olib borilyapti.

¹ Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 21 dekabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatini, nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-tonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019 yil 2 dekabrdagi 87-06-52 sonli xatida "2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish Konsepsiysi" va "Yo'l xaritasi" loyihasida davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari, vazifalari sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish o'z ifodasini topgan. Bu hujjatlar davlat tilini o'rgatish va uni bilish darajasini yanada takomillashtirish uchun oliy ta'lif muassasalarida 2020-2021 o'quv yildidan boshlab "O'zbek tilini sohada qo'llanilishi" asosiy fan sifatida o'quv rejasiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Davlat dasturi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining buyrug'i asosida o'quv jarayoniga tatbiq etib kelinayotgan mazkur kurs "Davlat tili haqida"gi qonunning quyidagi moddalariga tayanadi: 7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi. Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruva organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi. 10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili to'g'risida»gi Qonuniga (yangi tahrir) muvofiq, O'zbekiston Respublikasining davlat tili O'zbek tilidir.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini O'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar. Shuningdek, ish yuritish va kundalik foydalanishda tillarni tanlash va ishlatalish bilan bog'liq muammolar mavjud emas. «Davlat tili to'g'risida» gi Qonunga binoan korxonalarda ish yuritish va boshqa hujjatlari, notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi, zarur hollarda rus tilida yoki boshqa tillarda amalga oshirilishi ham mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi. Til insonning birlamchi ehtiyoji, anglash, bilish, so'zlash, aloqa-munosabat vositasi, mansub-xoslik omili bo'lgani bois hamisha jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan bo'lib kelgan. Jumladan, o'zbek tili o'zbek millatining uzoq tarixiy ildizlariga, o'z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadriyati, ulkan ma'naviy yutug'idir. Bugungi taraqqiyotiga qadar shonli va sharafli yo'llarni bosib, keskin va shiddatli to'fonlarni yengib kelayotgan milliy tilimiz davlat maqomida yanada ulug'vor va ustuvorligini namoyon qilmoqda. Shu bois o'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanining ahamiyatli jihatni ham shunda.

Talabalarning o'zbek tilida soha bo'yicha nutqiy kompetentligini oshirish, mutaxassisikka oid og'zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo'llash ko'nikmalarnini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, talabalarga soha bo'yicha egallagan bilimlarni yozma va og'zaki ravishda o'zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish, sohada qo'llaniladigan terminlar, asositushunchalar soha doirasida qo'llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta'minlash, nutq uslublari, xususan sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi-mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishishni ta'minlash, egallanayotgan soha bo'yicha nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni o'zbek tilining yozma va og'zaki nutqi me'yor va qoidalari asosida mukammal o'zlashtirishga va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o'zbek tili adabiy



normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta'minlahshdan iborat. Keyingi yillarda tilimizning kasb-hunar, ilmiy-texnika tili va atamalarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Har bir sohaning o'z atamalar tizimi mavjud bo'lib, bitta atama faqat bitta tushunchanigina ifodalaydi. Atamalarni qo'llashda har qanday murakkab fikrni ixcham, oson, lo'nda va aniq, shuningdek, tushunarli ifodalashni osonlashtirish maqsad qilib quyiladi. Atamalarga xos bo'lgan ma'nno jihatidan aniqlik, tushunchaning mohiyatini yoki eng asosiy belgisini aniq ifodalab berish, ulardagi tuzilish jihatidan ixchamlik, qisqalik ishlatalishga qulaylik kabilar tushunchani tushunarli, aniq, qisqa bo'lishini ta'minlaydi. Oliy o'quv yurtlarida sohaga oid imlo va izohli lug'atlari tayyorlanmoqda, chop etilmoqda. Mavjud lug'atlardan keng foydalanish, so'z va atamalar ma'nosini chuqur anglash kishining so'z boyligini oshirishda katta ahamiyatga ega. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi, o'zbek tilshunoslik terminologiyasi va metodikasi bo'yicha M.X.Ahmedova, A.Berdialihev, K.A Gayubova, egallagan bilim va ko'nikmalarini soha doirasida mustahkamlash va yanada kengaytirish, talabalarning tanlagan ixtisosliklari bo'yicha davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, nutqlarini kasbiy atamalar bilan boyitish, o'zbek tilida yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta'minlashga erishish haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan.

I.Ermatov "O'zbek tilshunoslik terminologiyasi" deb nomlangan monografiyasida o'zbek tilining so'z boyligi va terminlarning qo'llanilishi borasida[3], X.Muhiddinovning "Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzlusizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi tadqiqot ishida o'zbek tilining o'qitilishida so'zlarning to'g'ri qo'llanilishi hamda ilmiy metodik terminlar izohi haqida asosiy tushunchalari yoritilgan[4].

Z.Ashurova "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" o'quv qo'llanmasida soha mutaxassislarini davlat tashkilotlarida, ta'lim muassasalarida o'zbek tilida ish yuritish faoliyatini shakllantirish nazarda tutilgan[5]. Ushbu qo'llanmada mutaxassisning kundalik mehnat faoliyati hamda turmushida zarur bo'lgan nutqiy mavzularda o'zbek tilida mustaqil so'zlay olishlari va yozishlari, ixtisoslikka oid turli nutq uslublarida matn tuza olish, uni o'zgartira bilish malakalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Fan doirasida ana shunga e'tibor bergan holda muayyan nutqiy mavzular yuzasidan zaruriy grammatik bilimlarni berish, ixtisoslik qamrovida og'zaki va yozma nutqni o'stirish, turlicha tipdag'i matnlarni erkin tuza olish malakalarini o'stirish vazifasi qo'yilgan[5].

O'zbek tilining sohada qo'llanishida talabalarga o'z sohasidagi so'z va terminlarning shakllanish va qo'llanish, yasalish va kirib kelish xususiyatlarini, matnga so'z va termin tanlash, matnni tahrir qilish – kengaytirish va qisqartirish, matn va hujjatlarni to'g'ri yozish, dastlabki ilmiy ishlarini yozishga o'rgatish, nutq turlari, nutqiy faoliyat, nutqning kommunikativ xususiyatlari, nutqiy etiket, nutqning tarkibiy qismlari, nutq tuzish usullari o'rgatiladi.

M. Qambarovning berishicha, o'zbek tilining sohada qo'llanishi fanini o'qitish maqsadlarini quyidagi tartibda[6]:

1. turli uslublarda qo'llanilayotgan so'z va terminlarni tahlil qilish; -mutaxassislikka oid matn, maqola va kurs ishlarini mazmunli va xatosiz yozish;
2. matnlarning turlari va tuzilishini puxta bilish;
3. mavzular bo'yicha dastlabki ilmiy ishlar va hujjatlarni savodli yozish haqida malakaga ega bo'lish;
4. ilmiy, rasmiy, so'zlashuv uslublariga xos nutqiy faoliyat va etiketni amalga oshirish;
5. nutqning tarkibiy qismlari va nutq tuzish usullaridan xabardor bo'lish;
- aniq va to'g'ri, mantiqiy va ta'sirli nutq tuza bilish;
- nutqning kommunikativ sifatlarini to'g'ri qo'llay olish;
6. taqdimot tayyorlashda nutq vositalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi; - mutaxassisligiga oid mavzularda bog'lanishli matn tuza olish va bunday matnlarni tarjima qilish;
7. ixtisoslikka oid ilmiy atamalarni to'g'ri o'qish, ma'nosini izohlay bilish, ular ishtirokidagi gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzishni bilishi va amalda



qo'llay olishi;

8. o'z ixtisosligi bo'yicha lug'atlardan foydalangan holda maqola, turli rasmiy ish hujjatlarini tayyorlay bilish;
- Mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashdan iborat ekanligi yoritilgan.

Bizningcha, talabalar o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini soha doirasida mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosliklari bo'yicha davlat tilini puxta bilishlari muhim ahamiyatga ega. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari olimlaridan B.P.Ardenpol, R.Bart, I.Yu.Gats, V.Z.Demyankov, O.V.Dolgova, T.V Jerebilo, L.M.Loseva, M.Lvov, I.Y. Lerner, O.I.Moskalskaya, I.M.Podgaetskayalar so'z va atamalarning izohi, talabalarning nutq madaniyati hamda lug'atlar ustida ishslash metodikasi yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borgan. So'z va atamalar izohi bilan bir qatorda tilning muhim jihatlari, til va tafakkurga ahamiyat bergen

Tabiat va jamiyat mahsuli bo'lган inson, ayni paytda, ularning oliy namunasi ham sanalib, olamni narsa va predmet shaklida, voqeа va hodisa tarzida ongida aks ettiradi, idrok qiladi, fikrlaydi. Bu jarayonda muhim vosita hisoblangan tilning ahamiyati g'oyatda muhimdir. Shuning uchun ham til va tafakkurni bir-biridan alohida tarzda tasavvur qilib bo'lmaydi. "Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lмаганидек, til ham tafakkursiz bo'lmaydi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақидаги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ги ПК
2. Маджидова, Р. У., Мухитдинова, Х. С., & Оманов, П. Х. РОЛЬ ЛИНГВОСТРАНОВЕДЧЕСКИХ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО. “ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ” 7-ҚИСМ, 149.
3. Маджидова, Р. У. (2019). Антропоцентризм и аксиологическая картина мира. Наука, техника и образование, (6 (59)), 67-71.
4. Majidova, R. U. (2023). LANGUAGE AS A COMMUNICATION TOOL: UNDERSTANDING ITS FUNCTIONS AND IMPLICATIONS. “GERMANY” MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
5. Маджидова, Р. (2018). Речевое Поведение Человека В Социолингвистической И Психолингвистической Трактовках. Farg'ona Davlat Universiteti, (1), 20-20.
6. Urishevna, M. R. (2019). Representation of the linguistic world picture through a human factor. RELIGACIÓN. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(15), 234-240.
7. Аблаева, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 152-156.
8. Аблаева, Н. К. (2024). РОЛЬ ПРИРОДЫ В ДРАМЕ ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА». MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 8(8), 176-181.
9. Аблаева, Н. К. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В БАЛЛАДЕ В. ЖУКОВСКОГО «СВЕТЛНА». YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 129-132.
10. Аблаева, Н., & Джуманиязова, И. (2024). Возможности Корпусной Лингвистики В Изучении Русского Словообразования. «Contemporary Technologies Of Computational Linguistics», 2(22.04), 520-524.



11. Аблаева, Н. К. (2024). НРАВСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА В ТВОРЧЕСТВЕ ЛН Толстого (на примере романа "Война и мир"). *JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS*, 1(1), 24-27.
12. Mamatov, G. B. R. (2024). IMPLEMENTATION OF THE EDUCATION SYSTEM OF EUROPEAN COUNTRIES. *Innovations in Technology and Science Education*, 3(19), 135-139.
13. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). The Use of Information Technology in the Formation of Professional Competence of Foreign Language Teachers. *Science and Innovation*, 3(Special Issue 19), 352-354.
14. Mukhammadieva, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(4).

